SIRDARYO VILOYATI SARDOBA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 28-oktabr | 252-9-127-Q/24 | Sardoba tuman hokimligi

Sardoba tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun 2025-yilda ish o‘rinlarining eng kam sonini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonunining 25-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarorlariga asoslanib, tuman hududida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini ajratish shart bo‘lgan tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar (keyingi o‘rinlarda tashkilot deb ataladi) xodimlarining ro‘yhat bo‘yicha o‘rtacha sonidan (1263 nafar) 80 kishini tashkil etadigan 7 foiz miqdorida, shu jumladan;

- o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun 1 foiz (19 kishi);

- ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun 1 foiz (50 kishi);

- nogironlar uchun 3 foiz (6 kishi);

- tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 0,5 foiz (2 kishi);

- jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud ajrimiga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlangan shaxslar uchun 0,5 foiz (3 kishi);

- odam savdosidan jabr ko‘rgan shaxslar uchun 0,5 (0 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining zaxirasi belgilansin.

- Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0,5 (0 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining zaxirasi belgilansin.

2. Ushbu Qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan shaxslar uchun qo‘yiladigan xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rni tashkil etilgan ish o‘rni hisoblanadi;

- o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar uchun–bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

- ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyogarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- nogironlar uchun–mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘ligining axvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan xolda) beradigan ish o‘rinlari;

- tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida, ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun–maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

- jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud ajrimiga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlangan shaxslar uchun, shuningdek odam savdosidan jabr ko‘rgan shaxslar uchun–ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa–maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-y) buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy extiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga–xar bir xodim uchun 12 oydavomida xar oyda bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorda haq to‘lanadi.

4. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yilga band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati birinchi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumandagi korxona, tashkilot hamda muassasalar rahbarlariga;

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda barpo etilishini ta’minlasinlar.

- xar chorakda hisobot oyidan keyingi oyning o‘ninchi kuniga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ish joylarining eng kam miqdori bo‘yicha ish o‘rinlarining tashkil etilganligi haqidagi, shuningdek nechta fuqarolar ushbu o‘rinlarga ishga joylashganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z vaqtida xar oyning yigirma beshinchi kuniga qadar topshirib borilishini ta’minlasinlar.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasining to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolgan taqdirda tashkilot o‘n kun muddatda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

7. Ushbu Qarorni bajarmagan tashkilot mansabdor shaxslariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jazoga tortish choralari qo‘llanadi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganligi uchun jazoga tortilganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun belgilangan ko‘rsatgichdan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun turar joy bo‘lmagan binolarni birinchi navbatda ajratish yo‘li bilan band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar uchun qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda imtiyozlar belgilansin.

10. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini ilovada belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larning bir qismini O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari belgilansin.

11. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023-yil 23-oktyabr kundagi 324-9-127-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (O.Pardabayev)ga;

- bir xafta muddatda mazkur qarorning 3-bandida ko‘rsatilgan tumandagi korxona, tashkilot hamda muassasalar rahbarlari e’tiboriga yetkazilsin.

13. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Ashirov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Z.Karimov**

Sardoba tuman hokimining
2024-yil 28-oktabrdagi
252-9-127-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Сардоба туманида 2025 йилда ижтимоий муҳофазага мухтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйилган иш ўринларига ишга жойлаштириш тўғрисида

М А Ъ Л У М О Т

Т/р	Корхона ва ташкилот номи	Уларда ишловчилар сони	Банд қилинган иш ўринлари сони		шу жумладан:															
			Жами 7%	шу жумладан, ногирон-лар учун 3%	14 ёшгача ва ногирон болалари бўлган ёлғиз ва кўп болалаи ота оналар 1%		Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларини таъмомлаган ёшлар, шунингдек, олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари 1%		Сафарбарлик чақириқ захирасида хизматни ўтаган ва муддатли харбий хизматдан бўшатилганлар 0,5 %		Ногиронлар учун 3%		Пенсияолди ёшидаги шахслар учун 0,5 %		Жазони ўташ муассасаридан ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун 0,5 %		Одам савдоси қурбони учун 0,5 %		Атрофдагилар учун хавф туғдирмайдиган ижтимоий аҳамиятли касалликлардан азоб чекувчи шахслар учун 0,5 %	
					йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда	йиллик режа	Амалда
1	SARDOBA TUMAN KASB-HUNAR MAKTABI	69	5	1			4				1									
2	SARDOBA TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	698	24	0	13		29													

3	SARDOBA TUMAN BOLALAR-O`SMIRLAR SPORT MAKTABI	95	6	0	2		3								1					
4	SARDOBA TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	92	6		2								2		2					
5	9-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SA'NAT MAKTABI	34	2	1			1				1									
6	YO'LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	58	4		2		2													
7	А.НАВОИЙ НОМЛИ 6-УРТА МАКТАБ	74	4	1			3				1									
8	22-УРТА МАКТАБ	41	3	1			2				1									
9	А.ХАМЗА НОМЛИ 15 УРТА МАКТАБ	48	4	1			3				1									
10	У.ЮСУПОВ НОМЛИ 14-УРТА МАКТАБ	54	4	1			3				1									
Жами:		1263	80	6	19		50		0		6		2		3		0		0	